

SHAFFOF TADBIRKORLIK MUHITI – BARQAROR TARAQQIYOT VA AHOLI FAROVONLIGI KAFOLATI

Prezident Shavkat Mirziyoyev yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid taqdimot bilan tanishdi.

Tadbirkorlikni rivojlantirish mamlakatimizda strategik vazifaga aylangan. Iqtisodiyot ravnaqi, aholi bandligi va turmush farovonligida bu sohaning o‘rni juda katta. Shu bois, biznes yuritish qoidalari soddalashtirilib, qulayliklar oshirib borilmoqda. Raqamli texnologiyalar ommalashayotgani bunda qo‘l kelayotir.

Buni davom ettirgan holda, shaffof tadbirkorlik muhitini shakllantirish, naqdsiz to‘lovlar uchun qulayliklarni kengaytirish ko‘zda tutilmoqda.

Unga ko‘ra, yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun 2030-yil 31-dekabrga qadar maxsus huquqiy rejim joriy etiladi. Ularni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishdan tortib hisobotni topshirishgacha bo‘lgan barcha asosiy xizmatlarni birlashtiruvchi integratsiyalashgan raqamli platformalar yaratiladi. Jumladan, faoliyatni rasmiylashtirish, bank hisobvaraqлари ochish va boshqarish, soliqlarni hisoblash va to‘lash, hisob-kitoblar qilish va fiskal cheklarni shakllantirish ushbu raqamli platformalar orqali yuritiladi.

Bu tizimda elektron hamyon ochilishi tadbirkorlarga daromadlarni qabul qilish, xodimlar, kontragentlar va tashkilotlar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash imkoniyatini beradi. Elektron hamyonga

ega bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun bank hisobvaraqларini ochish ixtiyoriy bo‘ladi.

2025-yil 1-noyabrdan boshlab, bu jarayonlarda QR-kod va “tap to pay” texnologiyasidan foydalaniladi. Hujjatlarni masofaviy biometriya va “SMS xabarnoma” orqali elektron kalitsiz imzolash mumkin bo‘ladi. Bu ma‘lumotlar qog‘oz nusxadagi hujjatlar bilan tenglashtiriladi. “Kunlik to‘lov” tartibi tajriba tariqasida joriy etilib, xodimlarga to‘lovlarni elektron hamyon orqali to‘lash imkoniyati yaratiladi.

2026-yil 1-yanvardan boshlab, yillik aylanmasi 1 milliard so‘mgacha bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasi 1 foiz miqdorida belgilanadi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarda elektron to‘lovlarni qabul qiluvchi maxsus QR-kod mavjud bo‘lishi chakana savdo qoidalarining majburiy talabi etib belgilanadi. Raqamli platformadagi pul aylanmalari to‘g‘risidagi ma‘lumot kredit ajratishda inobatga olinadi.

Prezidentimiz bu takliflarni ma‘qullab, yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarorni imzoladi.

O‘ZA

YANGICHA YONDASHUVLAR ASOSIDA YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH VAZIFALARI BELGILANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Ilgari biznesga yuqori ma‘muriy bosim va aralashuv bo‘lgani sababli ko‘pchilik oshkora ishlashdan xavfsirar edi. So‘nggi yillarda soliq yukini kamaytirish, byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirildi. Soliq turlari 13 tadan 9 taga kamaydi, 100 dan ortiq turdagi litsenziya va ruxsatnoma bekor qilindi.

Natijada kuzatilmayotgan iqtisodiyot ulushi 2019-yildagi 45-50 foizdan hozirda 35 foizga tushdi. Lekin hali buni yanada kamaytirish zarur.

Taqdimotda bu boradagi ustuvor vazifalar muhokama qilindi. Mutasaddilar yashirin iqtisodiyotga sabab bo‘layotgan omillar va ularni bartaraf etish choralari bo‘yicha axborot berdi.

Bunda eng samarali yo‘l ilg‘or texnologiyalar asosida yangicha yondashuvlarni joriy qilish ekanini ta‘kidlandi. Masalan, Toshkent shahrida jamoat transporti to‘liq avtomatlashgan to‘lovga o‘tkazilgani yo‘lovchilar soni aslida 30 foizga ko‘p ekanini ko‘rsatdi. Yoki raqamlashtirilgan dehqon va buyum bozorlarida tushum 2-3 karra oshayotir.

Shunday tizimni qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport, savdo va xizmatlar kabi yashirin iqtisodiyot ulushi yuqori bo‘lgan sohalarda ham joriy qilish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi. Litsenziya va ruxsatnoma berish jarayonlari hamda muddatlarini qayta ko‘rib chiqib, inson omilini keskin qisqartirish va barcha qadamlarni to‘liq raqamlashtirish

O‘ZA

Prezident qarorlari – hayotda va nazoratda

ISLOHOTLAR DAVRIDA MAS’ULIYAT VA INTIZOM – RIVOJLANISHNING ASOSIY KALITI

Bugun mamlakatimizda izchil va tizimli islohotlar olib borilmoqda. Bu jarayonda nafaqat mas’ul rahbarlar, balki har bir mutaxassis va xodim zimmasiga yuklangan vazifalarni yuksak mas’uliyat bilan bajarishi shart. Chunki tartib va intizomsiz o‘shish va rivojlanish bo‘lmaydi.



Favqulodda vaziyatlar vazirligining har bir ofitseri, serjanti va xizmatchisi o‘z ishini “O‘z vaqtida ogohlantirish, qutqarish va yordam berish” shiori ostida bajarmoqda. Mamlakatimiz aholisi va hududini favqulodda vaziyatlar hamda yong‘inlardan muhofaza qilishda barcha imkoniyat va kuchlarni safarbar etmoqda.

Xalqimizda “Rejasiz ish — qolipsiz g‘isht” degan maqol bor. Davlatimiz rahbarining sohaga oid farmon va qarorlari asosida ishlab chiqilgan rejalar — biz uchun asosiy yo‘l xaritasi. Ularning tizimli, qat’iy tartib va temir intizom bilan sifatli bajarilishi esa faoliyatimiz samaradorligini ta’minlaydi. Xususan, Prezidentimizning 2025-yil 25-iyuldagi “Davlat organlari va tashkilotlarda

ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga binoan ijro intizomini qat’iy ta’minlashning yangi mexanizmi joriy etilgani muhim ahamiyatga ega.

Unga ko‘ra, endi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari farmoyish va topshiriqlarining ijrosi “Ijro.gov.uz” tizimida davlatimiz rahbarining farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlari ijrosini nazorat qilish tartibida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, hukumat qarorlari ijrosi bo‘yicha nazorat va hisobdorlik joriy yil 1-oktabrdan boshlab “ijro.gov.uz” tizimi orqali tashkil etiladi.

Davomi 4-betda

Nuqtayi nazar

MAHALLIY IJRO HOKIMIYATI ORGANLARI XODIMLARINI RAG‘BATLANTIRISHNING YANGI TIZIMI

YOXUD ADOLATLI ISH HAQI SAMARADORLIKNI KAFOLATLAYDI

Prezidentimizning shu yil 7-avgustdagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda tuman (shahar) hokimliklari xodimlarining mehnatiga haq to‘lash va ularni moddiy rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni davlat xizmatchisi uchun birgina moddiy tarafdin emas, insoniylik va odillik mezonlari nuqtayi nazaridan ham yuksak ahamiyatga ega.

Bu tizim davlat xizmatchisining mehnatini qadrlash, oilasi farovonligi haqida qayg‘urish, shu bilan birga, kelajakda xizmat sifati va samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan keng islohotlar zanjirining muhim halqasidir.

Aslida, davlat xizmatchilarining ko‘proq qismi quyil tizimlarda faoliyat yuritadi. Bu ularning maoshini oshirish davlat iqtisodiyoti uchun sezilarli darajada yuk bo‘ladi degani.

Bunday qarorga kelish esa o‘sha yukni chuqur his etish hamda qanchalik qiyin bo‘lmasin, inson qadriini yuksaltirish uchun ushbu qadamni tashlash jasoratini anglatadi. Farmonning mazmun-mohiyati, u orqali yaratiladigan tizim bilan tanishib chiqib, o‘zim anglagan va his etgan uchta jihatni alohida ta’kidlab o‘tishni joiz bildim.

Davomi 2-betda

Avaza siyosiy deklaratsiyasi: IQTISODIY INTEGRATSIYA SARI DADIL QADAM

Davlatimiz rahbari 4-5-avgust kunlari BMTning Dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo‘yicha uchinchi xalqaro konferensiyasida ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan Turkmanistonda bo‘ldi.



“Avaza” milliy kurort hududida o‘tkazilgan mazkur nufuzli anjuman jahon hamjamiyati diqqat markazida bo‘lib, u yilning eng muhim geosiyosiy voqealaridan biri sifatida qayd etildi. Konferensiya kun tartibidan transport yo‘laklari orqali o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirish, iqlim o‘zgarishi va atrof-muhit xavflariga bardoshli infratuzilmani shakllantirish, shuningdek, Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish kabi dolzarb masalalar o‘rin oldi.

Yangi qabul qilingan Avaza siyosiy deklaratsiyasi kelgusida mintaqaviy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilishi shubhasiz. Xususan, savdo tartib-taomillarini soddalashtirish, iqtisodiy transformatsiyani jadallashtirish va hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishlarini aniq belgilab olish ushbu tashrifning eng muhim samaralaridan biri bo‘ldi.

Davomi 5-betda

YOSHLAR BANDLIGINI TA’MINLASH – OLIY TA’LIMNING USTUVOR VAZIFASI

Mamlakatimiz iqtisodiyoti barqaror rivojlanib, yangi ishlab chiqarish korxonalari barpo etilmoqda, mavjudlarining quvvatlari oshirilmoqda. Bu esa turli sohalarda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega malakali kadrlarga ehtiyojni yanada oshirmoqda. Prezidentimiz rahbarligida oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilari bandligini ta’minlash masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan yig‘ilish mavzusi aynan shunisi bilan diqqatga sazovordir.

Iqtisodiyot tarmoqlari barqaror rivojlanib borar ekan, yangi texnologiyalar va innovation usullar joriy etilishiga imkon yaratiladi. Shu bilan birga, talab va sifat jihatidan yuqori malakali kadrlarga ehtiyojni sezilarli darajada oshiradi. Ilgari ishlab chiqarish korxonalari soni va quvvati cheklangan, ko‘p korxonalar eski texnologiyalarda faoliyat yuritgani tufayli yangi ishchi o‘rinlari yaratish sekin kechar, malakali kadrlarga talab haminqadar edi. Shu bois, oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari mehnat bozoriga



integratsiyalanishda qiyinchiliklarga duch kelar, oliygohlar bilan korxonalar o‘rtasida hamkorlik yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagandi. Yoshlar ko‘pincha mustaqil ravishda ish izlashga majbur bo‘lib, ish beruvchilar zarur malakaga ega kadr topishda qiyinchilikka uchrar edi.

Hozir esa turli malakali mutaxassislar tayyorlash, ularning kasbiy salohiyatini mustahkamlash va yangi zamonaviy bilimlar bilan boyitishga e‘tibor ancha kuchaydi. Bu jarayon mamlakat iqtisodiyotini rag‘obatbardosh qilib, ishlab chiqarish hajmini oshirishga, ish o‘rinlarini kengaytirishga

va aholi farovonligini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Lo‘nda qilib aytganda, yoshlarni ish bilan ta’minlash yurtimiz taqdiriga daxldor eng muhim va ustuvor vazifaga aylanmoqda.

Davomi 3-betda

“PREZIDENT SOVG‘ASI” KARVONI MANZILLARGA YAQIN



Bu yil 800 mingga yaqin o‘g‘il-qiz katta hayajon bilan maktab ostonasiga qadam qo‘yadi. “Birinchii qo‘ng‘iroq” tadbirlaridan so‘ng ularga atab “Prezident sovg‘asi” sifatida tayyorlangan o‘quv qurollari tantanali topshiriladi. Ayni paytda “Prezident sovg‘asi”ni yetkazib berish ishlari qizg‘in pallada.

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi ma‘lumotiga ko‘ra, joriy yilda ijtimoiy, ishlab chiqarish dasturlari va boshqa manbalar hisobidan yurtimizdagi 379 ta maktabda qurilish-ta’mirish ishlari bajarilmoqda. Bu sa’y-harakatlar 112 mingga yaqin

o‘quvchi o‘rni ochishi, 73 mingdan ortiq o‘rinli o‘quv binolari mukammal ta’mirlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, joriy o‘quv yilida 30 dan ziyod yangi maktab faoliyat yurita boshlaydi.

Davomi 2-betda



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Nuqtayi nazar

MAHALLIY IJRO HOKIMIYATI ORGANLARI XODIMLARINI RAG‘BATLANTIRISHNING YANGI TIZIMI

YOXUD ADOLATLI ISH HAQI SAMARADORLIKNI KAFOLATLAYDI



Durdona RAHIMOVA,
Toshkent shahri hokimi o‘rinbosari

Boshlanishi 1-betda

Birinchisi — insoniylik jihati. Har bir inson, u davlat xizmatchisi bo‘ladimi yoki xususiy sektorda ishlaydimi, o‘z mehnatiga munosib baho olishni, olgan ish haqi hisobidan oilaviy hayotini bekam-ko‘st yo‘lga qo‘yishni, oila a‘zolari uchun qulay shart-sharoit yaratib berishni istaydi. Davlat xizmatchisi ham har qancha fidoyi bo‘lmasin, oilasida biror muammo yoki kamchilik bo‘lsa, inson sifatida o‘zini xotirjam his etolmaydi va bu uning ishiga ta‘sir o‘tkazishi tabiiy.

Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida, odamlar farovonlik sari intilayotgan bir paytda davlat xizmatchisini yetarli maoshsiz, faqat vatanparvarlik hissi hisobiga xizmat qildirish va undan yuqori natija kutish balandparvoqlik bo‘ladi. Shu ma’noda, farmon bilan yo‘lga qo‘yiladigan yangi tizimda davlat xizmatchilariga faqat ishchi kuchi sifatida emas, balki inson sifatida qaralmoqda, ularning insoniy ehtiyojlari qadrlanmoqda, o‘z mehnatining qadri his etishi muhim talab sifatida baholalanmoqda. Shundan kelib chiqib, ushbu tizimni tom ma’noda insoniylikka yo‘naltirilgan islohot, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ikkinchisi — siyosiy-iqtisodiy jihati. Buni nimada ko‘rish mumkin? Shubhasiz,

yangi tizimdan davlat xizmatida boshqaruv sifatini oshirish, inson resurslaridan to‘g‘ri foydalanish, qolaversa, islohotlar uchun quyi tizimlarga yo‘naltirilgan mablag‘lardan oqilona foydalanish maqsadlari ham ko‘zlanadi. Mahalliy ijro organlarida ish hajmi ko‘pligi, ammo maosh kamligi tufayli kadrlar qo‘nimsizligi va sifat darajasi bilan bog‘liq muammolar ko‘p kuzatiladi. Hattoki ba‘zi hududlarda davlat xizmatchilarining xususiy sektorda ishlashni afzal bilib, davlat xizmatidan ketish holatlari ham uchraydi.

Mashhur iqtisodchi olim, Nobel mukofoti sohibi Geri Bekker inson kapitali nazariyasida “Yuqori sifatli (salohiyatli) kadrlarni saqlab qolish va rivojlantirish uchun yetarli maosh shart”, deydi. Yangi tizim quyi bo‘g‘inlarda salohiyatli kadrlarni nafaqat saqlab qolish, balki yuqori bo‘g‘indagi sifatli kadrlarning quyi bo‘g‘inlarga tushib ishlash istagiga ham ijobiy ta‘sir o‘tkazishi mumkin.

Farmon bilan amaliyotga tatbiq etiladigan tizimda davlat xizmatchilarining ish haqi oshiriladi, faqat bunda ularning malakasi, tajribasi, shuningdek, ish unumdorligi, erishilgan samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) muhim o‘rin tutadi. Bu tartib zamonaviy

beruvchi manfaatlarining muvozanatidir, u mehnatkashning hayotini munosib darajada ta‘minlashi hamda uning mehnatiga munosib bo‘lishi shart”.

Bu tizimni joriy qilishda xalqaro ilg‘or tajribalar o‘rganilgan hamda inobatga olingan, deysingha to‘la asoslarimiz bor. Masalan, dunyo tajribasida inson resurslarini to‘g‘ri boshqarish uchun ish haqi va rag‘batlantirish tizimi, ya‘ni adolatli maosh, mukofot va imtiyozlar paketiga muhim jihat sifatida qaraladi. Qolaversa, Xalqaro mehnat tashkiloti hujjatlarida ham adolatli ish haqi haqida so‘z yuritilib, uning ishchi va oilasi uchun munosib hayot darajasini ta‘minlashga yetishi, shu bilan birga, bajarilgan mehnat uchun teng haq tamoyiliga asoslanishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Shuningdek, BMtning dunyoda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan Taraqqiyot dasturida ham ish haqi mehnat samaradorligi, malaka va ish tajribasiga proporsional belgilanishi kerakligi ta‘kidlanadi. Shu ma’noda, yangi tizim orqali xodimlarning ish faoliyatini kuzatish, KPI (asosiy ko‘rsatkichlar) yordamida baholash va natijalarni tahlil qilish

resurslardan unumli foydalanib, ko‘proq iqtisodiy foyda olish imkonini yaratiladi. Kadrlar sifatini o‘z-o‘tkazadi. Shu bois, yangi tizim hududlardagi o‘ziga xos iqtisodiy rivojlanishga ham turkib bo‘ladi, deysing mumkin.

Uchinchisi — ma‘naviy-tarbiyaviy jihati. Yangi tizimning ma‘naviy-tarbiyaviy jihatlari alohida ta‘xtalib o‘tish lozim. Davlat xizmatchisi o‘z ishini xush ko‘rish, unga mehr berishi, vatanparvarlik, fidoyilik ko‘rsatishi, eng muhimi, halol bo‘lishi lozim. Afsuski, davlatimiz tomonidan qarshi choralar ko‘rilishiga qaramay, joylarda manfaatlar to‘qnashuvi va korruption holatlar uchray turibdi. Yangi tizimda bunday noxush, salbiy holatlarning oldini olish maqsadi ham ko‘zlangan, albatta. Ko‘pincha ish haqining kamligi davlat xizmatchilarini noqonuniy daromad izlashga va o‘sha orqali o‘z ehtiyojlarini qondirishga majbur qiladi. Shuning uchun dunyo tajribasida yetarli maoshga institutsional halollik kafolati sifatida qaraladi.

O‘z mehnatiga adolatli haq to‘lanyapti deb bilgan inson ishdan mamnun bo‘ladi, ishdan o‘zini baxtli his qiladi, halol mehnat qilishga intiladi, ishiga yanada sadoqat va vijdonan yondashadi, qolaversa, o‘zini namoyon qilishga, davlat va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shishga intiladi. Ya‘ni adolatli maosh orqali xodimga ma‘naviy-tarbiyaviy ta‘sir o‘tkaziladi, u o‘z ustida ishlashga, malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirishga da‘vat etiladi.

Shu ma’noda, yangi tizim faqat ijtimoiy yordam emas, balki tizimda shaffoflik va halollikni mustahkamlashga qaratilgan strategik qadamdir. Chunki moddiy barqarorlik ma‘naviy barqarorlikka olib keladi, ma‘naviy barqarorlik esa xizmat samaradorligini oshiradi.

Ushbu tizimni yaratish uchun tashlangan amaliy qadami davlat xizmatchilari imkoniyat sifatida qabul qilmog‘i lozim. Har birimiz zimamizga yuklatilgan vazifalarni sidqidildan bajarib, xalq va vatan oldidagi burchimizni har qachongidan ham mas‘uliyat bilan ado etishimiz shart.



Munosabat

E‘TIBOR VA E‘TIROF — KATTA ISHONCH

Kechki soatlarda tezda Fanlar akademiyasiga yetib kelishimni so‘rab qo‘ng‘iroq bo‘ldi. “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” faxriy unvoni bilan taqdirlanganimni aytishganida juda hayajonlandim. Kichik mehnatim e‘tiborga olinib, yuksak unvonga munosib ko‘rilganimdan boshim osmonga yetdi. To‘g‘ri, ilgari ham bir necha mukofotlarga loyiq ko‘rilganman. Qator xorijiy akademiyalar a‘zosiman. Ammo davlatimiz rahbari farmoni bilan nufuzli faxriy unvon berilishi kishi ko‘nglini yanada yuksaltirarkan.



Ne‘matulla IBROHIMOV,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, akademik

O‘rta Osiyo tarixini arab manbalari bo‘yicha o‘rganish, arab xalq romanlari janr va uslubiy qurilishi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar qildim. Ko‘pgina izlanishlarim Sharq va G‘arb tillaridagi nodir manbalarning chuqur tahliliga asoslangan. Manbashunoslikda yangi yo‘nalishlardan biri — Sharq badiiy tafakkuri va elitar madaniyatlarining uzviy yagonaligi haqidagi konsepsiya asoslari yaratilgani ana shunday izlanishlarga misoldir.

1975-yilda “Ibn Battuta sayohatlari O‘rta Osiyo tarixi bo‘yicha manba sifatida”

davomida ishladik. Shu paytgacha bunday mukammal lug‘at bo‘lmagan.

Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan “Arab tili grammatikasi”ning to‘ldirilgan, tuzatilgan nusxasi dunyo yuzini ko‘rgani ham izlanishlarimiz mahsulidir.

Shu bilan birga, 2010-yili Abdulmalik ibn Hishomning “As-Siyrat an-Nabaviyya” asarini, 2012-yili Ibn Battutaning “Sayohatnoma” asarini o‘zbek tiliga to‘liq tarjima qilib, chop ettirdik.

Bularning barchasi keyingi yillarda ilm-fanga qaratilayotgan e‘tibor natijasi. Tizimni rivojlantirish maqsadida Fanlar akademiyasi va uning ilmiy-tadqiqot institutlari faoliyatini yaxshilashga oid ko‘plab farmon va qarorlar chiqarildi.

Akademiyada tizimni takomillashtirish davom etmoqda. Uning tarkibidagi qator ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlar faoliyati qayta tiklandi. Akademiyada tarkibi saylovlar asosida yangi a‘zolar bilant o‘ldirildi. Ilmiy ishlanmalar, yangiliklar, kashfiyotlarni amaliyotga tatbiq qilish maqsadida olimlar bilan korxonalar o‘rtasida tizimli hamkorlik davom etmoqda. Mamlakatimizda ilmiy ishlanmalar amaliyotga tatbiq etilishini qo‘llab-quvvatlash maqsadida xorijiy valyutada grantlar ajratilgani ham alohida e‘tiborga loyiq.

Bugungi kunda taqdim qilingan ilmiy ish loyihasi ekspertizadan o‘tkazilganidan keyin ularga alohida grantlar ajratildi. Biz ham



mauvzusida nomzodlik dissertatsiyasini, 1984-yilda “Arab xalq romani” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildim.

28 yil davomida dunyo mamlakatlarini kezip chiqqan mashhur sayyoh Ibn Battuta o‘z asarlarida Markaziy Osiyo, Xorazm va Movarounnahr haqida alohida ta‘xtalagan. U keltirgan ma‘lumotlar XIV asrning birinchi yarmi uchun nihoyatda qimmatli bo‘lgan. Hatto ba‘zilari o‘sha davrga oid yagona manba hisoblanadi. Nomzodlik dissertatsiyasida shu mavzuni baholi qudrat tadqiq qilganman.

Sayohatchi ko‘p yillar davomidagi sayohatlari ichida Xorazm va Movarounnahr ahlidan ko‘ra, mehmondo‘st, nihoyatda yuqori madaniyatli, san‘atsevar xalqni ko‘rmaganini qayd etadi. Uning asarlarida O‘zbekiston tarixi uchun qimmatli ma‘lumotlar keltirilgani, tarixni hech bir mubolag‘asiz o‘quvchiga yetkazishda bu juda ahamiyatlidir.

Oxirgi yillarda mag‘rib davlatlarida uning 28 ta qo‘lyozmasini topishibdi. Qo‘lyozmalarining asl nusxasi asosida 6 jildli kitob nashr qilingan. Shu davlatlarning mashhur kutubxonalarida bo‘lib, ma‘lumotlar yig‘ishga muvaffaq bo‘ldik. Yaqinda Yevropa olimlarining tadqiqotlari asosida uning to‘liq, ikki jildli mukammal nashrini chop etdik.

Olimlarimiz o‘zbek tilining izohli lug‘atini tuzishda ham juda katta qiyinchiliklarga duch kelishining asosiy sababi, arabcha-o‘zbekcha to‘liq, mukammal lug‘at bo‘lmagan. To‘rt jildli “Al-Qomus: arabcha-o‘zbekcha qomusi lug‘at”ni nashrdan chiqardik. Ushbu lug‘at o‘zbek sharqshunosligining katta yutug‘idir. 100 mingdan ortiq so‘zni o‘zida mujassam etgan qo‘llanmada ham poeziya, ham adabiyot, ham geografiya o‘rin olgan. Buning ustida shogirdlar bilan 11 yil

shunday grantni qo‘lga kiritganimiz e‘tiborga molik voqeilik bo‘ldi. Markaziy Osiyo tarixini yangi manbalar asosida o‘rganmoqchimiz. Qo‘llanmalar, tarixiy asarlar ko‘p. Birgina O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida 41 mingga yaqin tarixiy qo‘lyozma bor. Respublika miqyosida 100 mingdan ortiq qo‘lyozmani topish mumkin. Bularning barchasida Markaziy Osiyo tarixi ozmi-ko‘pmi o‘rin olgan. Arab, fors, turkiy manbalar qo‘lyozmalarini tarjima qilib muomalaga kiritmoqchimiz. “Markaziy Osiyo tarixi asl manbalarda” nomli katta kitob yaratmoqchimiz. Tarixni boshqatdan yozmoqchimiz. Shu bo‘yicha izlanishlar qilyapmi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ilm-fan, ta‘lim sohasidagi ulkan islohotlar yurt kelajagiga, istiqboliga nihoyatda katta e‘tibor bilan qaralayotganini ko‘rsatadi. Lekin dunyoda yangilanishlar, o‘zgarishlar yuz berayotgan ekan, ilm-fan sohasiga e‘tiborni yanada kuchaytirish hayotiy zarurat.

Men uzoq yillar Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida ishladim. Bir qancha shogirdlar tayyorladik. Yangi kafedrlar tashkil etildi.

Ana shu kichik mehnatlarim munosib e‘tirof etilib, faxriy unvon bilan taqdirlanganim hayotimdagi o‘chmas voqeiklardan bo‘ldi. Bu sharafli unvon yanada kuchli mas‘uliyat yuklaydi. Yurt ravnaqi oldida qiladigan ishlarimiz ko‘p. E‘tirof va e‘tibordan yuksalib, katta ishlarga bel bog‘lashimiz bunda muhim omil bo‘ladi.

Shukuh

Boshlanishi 1-betda

2025/2026-o‘quv yilida mamlakatimizdagi 10 ming 200 ga yaqin umumta‘lim maktabida 6,7 million o‘quvchi yangi o‘quv yili darslariga kirishadi. Bugunga qadar 665 ming (90 foiz) o‘g‘il-qiz 1-sinfga qabul qilindi. Qabul jarayoni 15-avgustga qadar davom etadi.

“Prezident sovg‘asi” tarkibida o‘zgarishlar bormi?

An‘anaga ko‘ra, “Prezident sovg‘asi” tarkibida 12 nomdagi o‘quv qurollari — portfel, 12 varaqli daftar, ruchka, oddiy qalam, 12 rangdagi qalamlar to‘plami, rangli qog‘oz to‘plami, plastilin, rasm dafitari, o‘chirg‘ich, 12 rangdagi akvarel bo‘yog‘i, yelim (kley), qalamdon mavjud. Ushbu o‘quv qurollari vazirlik huzuridagi “Ta‘lim-ta‘minot va logistika” xizmati tomonidan 1-10-avgust kunlari hududlarga, 10-20-avgust kunlari maktablarga to‘liq yetkaziladi.

1-sinfga qabul qilinayotgan har bir bolani “Prezident sovg‘asi” bilan o‘z vaqtida ta‘minlash maqsadida vazirlikning

adm.maktab.uz elektron platformasi orqali maktablar kesimida bolalarning ro‘yxati nomma-nom shakllantirildi (bunda nodavlat va boshqa vazirlik tasarrufidagi maktablar o‘quvchilari ham inobatga olingan). O‘quv qurollarining sifati va sanitar-gigiyenik talablarga mosligi to‘g‘risida “O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi” davlat muassasasining “Toshkent”

2025/2026-o‘quv yilida mamlakatimizdagi 10 ming 200 ga yaqin umumta‘lim maktabida 6,7 million o‘quvchi yangi o‘quv yili darslariga kirishadi. Bugunga qadar 665 ming (90 foiz) o‘g‘il-qiz 1-sinfga qabul qilindi. Qabul jarayoni 15-avgustga qadar davom etadi.

mahsulotlarni sertifikatlashtirish organi tomonidan muvofiqlik sertifikati olingan. Mutasaddilarning ta‘kidlashicha, o‘tgan yildan boshlab sumkalar o‘g‘il va qiz bolalar uchun bir xil yorqin ranglarda, o‘quv qurollarining og‘irligiga, hatto bolaning

davlat xizmatida mehnatga haq to‘lash shaffof va adolatli bo‘lishiga imkon yaratiladi.

Yangi tizimning iqtisodiy ahamiyati nimada? Hududlarga iqtisodiy maqsadlar uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar, resurslar o‘z o‘rnida va to‘g‘ri sarflanishi kadrlar saviyasiga chambarchas bog‘liq. Agar quyi tizimda munosib kadrlar ishlasa, mahalliy



ustida ishlayapmiz. Har yili “Prezident sovg‘asi”ni qabul qilib olish va egalariga yetkazishdek mas‘uliyatli vazifani sharafla bajarimiz. Zero, ilk bor o‘quv sumkasini tutgan bola va ota-onasi yuzidagi quvonchni ko‘rib, barcha charchog‘imiz chiqib ketadi, — deydi Andijon viloyati Qo‘rg‘ontepa tumanidagi 27-maktab direktori Akrom Abdullayev.

Bektemirlik Sayyora Nishonovanning oxirgi gapidan so‘ng o‘ylanib qoldim. Chindan ham yana qaysi davlatda 1-sinf o‘quvchilariga “Prezident sovg‘asi” berilar ekan deya manbalarni qidirдим. Bu borada hech bir ma‘lumot chiqmagach, sun‘iy intellekta murojaat qildim. Uning quyidagi tezkor javobi (aynan keltirilgan) shu yurtda yashayotganimdan baxtiyorlik hissinu yanada ziyoda qildi:

“Sizning savolingizga to‘g‘ridan to‘g‘ri javob — shu paytgacha ma‘lum manbalarda birgina mamlakat — O‘zbekistonda Prezident tomonidan 1-sinf o‘quvchilariga sovg‘a, ya‘ni o‘quv qurollari (portfel, rangli qog‘oz, qalamlar, daftarlar va hokazo) taqdim etilishi haqida ma‘lumot bor. Hozir boshqa davlatlarda shunday rasmiy davlat tomonidan beriluvchi Prezident giftingi an‘anasi yoki tashabbusi bo‘lishi haqida aniq ma‘lumotlar topilmadi. Masalan, Germaniya, Avstriya, Shveysariya va Chexiyaning nemis tilli hududlarida bolalarga “Schultüte” — qand va o‘yinchoqlar bilan to‘ldirilgan konus shaklidagi sovg‘alar berish an‘anasi bor, lekin bu davlat rahbarlari emas, ko‘proq ota-onalar yoki yaqinlar tomonidan beriladi”.

Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!





Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!

YOSHLAR BANDLIGINI TA’MINLASH –
OLIY TA’LIMNING USTUVOR VAZIFASIQo'ng'iro'tboy SHARIPOV,
oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vaziri

Boshlanishi 1-betda

So'nggi yetti yilda oliy ta'lim sohasi jadal rivojlandi — qabul ko'rsatkichlari 4,5 barobar oshdi, yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrovi esa 42 foizga yetdi. Bu bilimli, salohiyatli avlodni shakllantirishda ulkan qadam bo'ldi. Endilikda eng dolzarb vazifa bitiruvchilarning mehnat bozorida munosib o'rin topishi, ya'ni ularni ish bilan ta'minlashdir. Shu bois, bitiruvchilarni ish o'rinlari bilan o'zaro bog'lash, ularni ishlab chiqarish korxonalariga yetkazish, ish joylari bilan yaqindan tanishtirish hamda bu jarayonni tizimli va uzluksiz tarzda tashkil etish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

“Kelajakka qadam”:
ishli bo'lishning yangi tizimi

Joriy yildan boshlab yoshlar bandligini ta'minlash yo'lida noyob tizim yo'lga qo'yildi. Shu maqsadda banklarga 300 million dollar miqdorida resurs ajratildi. Prezidentimiz tashabbusi bilan yaratilgan mazkur tizim doirasida Milliy bank, Savdo-sanoat palatasi va hokimliklar hamkorligida “Kelajakka qadam” dasturi izchil amalga oshirilmoqda. Dastur doirasida Toshkent shahri, Samarqand, Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlarida “TalabaExpo-2025” kasblar ko'rgazmasi tashkil etildi. Yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash maqsadida minglab bitiruvchilarning biznes loyihalari uchun imtiyozli shartlarda yirik mablag'lar yo'naltirildi.

Ish beruvchilar bilan yaqin hamkorlikda tizimli ishlash, korxonalarda kafedra filiallari ochilishi, talabalar amaliyoti sifatli tashkil etilishi, oliy ta'lim muassasalarida “karyera kuni” va mehnat yarmarkalari muntazam o'tkazilishi o'z samarasini ko'rsatmoqda. Natijada bitiruvchilarning katta qismi doimiy ish bilan ta'minlandi, bir qismi tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'ydi, yana bir qismi esa dehqon xo'jaliklari tashkil etib, mustaqil mehnat yo'lini tanladi.

Erishilgan natijalar “Kelajakka qadam” dasturi yoshlarni hayotga tayyorlash, mehnat bozoriga moslashtirish va kelajakda yurtimiz iqtisodiy taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadigan avlodni shakllantirishda muhim o'rin tutayotganini yaqqol namoyon etmoqda. Biroq bitiruvchilarimizning katta qismi yirik kredit majburiyatlarini o'z zimmasiga olishdan qo'rqib, tadbirkorlik yo'lini tanlashga jur'at qilolmasligi ham kuzatilmoqda. Shuni inobatga olib, imtiyozli kredit resurslarining bir qismini bevosita bitiruvchini ishga olgan korxonalarga yo'naltirishga ruxsat berilishi bu muammoning samarali yechimi bo'ldi.

Endilikda ishga olingan bitiruvchilar soniga mutanosib ravishda tadbirkorlarga 5 milliard so'mgacha 18 foizli kredit ajratiladi. Kredit miqdoriga qarab, tadbirkor belgilangan sonda bitiruvchini ish bilan ta'minlaydi. Shu



bilan birga, agar korxona imtiyozli kredit evaziga ishga olgan bitiruvchini ikki yil ichida ishdan bo'shatsa, kredit foizi tijorat stavkasi o'zgarishi belgilandi. Ushbu tizim faqat joriy yil bitiruvchilariga emas, balki oliygohni tugatganiga uch yildan oshmagan yosh mutaxassislarga ham tatbiq etiladi. Bu esa yoshlarning mehnat bozorida munosib o'rin topishi va tadbirkorlar uchun malakali kadrlar zaxirasini shakllantirishda muhim qadam bo'ladi.

Uyg'unlik:
bitiruvchi — loyiha — ish
zanjiri

Yig'ilishda ta'kidlanganidek, ayrim sohalarda malakali mutaxassislar yetishmasligi tufayli ko'plab korxonalar chetdan kadr izlashga majbur bo'lmoqda. Davlat har bir talabani tayyorlash uchun yiliga o'rtacha yigirma besh-o'tiz million so'm sarflasa-da, bitiruvchilarning yarmidan ko'pi o'z kasbiga aloqasi yo'q yo'nalishlarda ishlashga majbur bo'lmoqda. Bu nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy yo'qotish hamdir — chunki bilim, mehnat va orzular o'z samarasini bera olmayotgan bo'ladi.

Yechim esa aniq: ta'lim tizimini ishlab chiqarish bilan yanada chambarchas bog'lash, har bir talabaning o'qish yo'lini uning kelajakdagi ish joyiga olib boruvchi uzluksiz zanjirga aylantirish zarur. Dual ta'lim, haq to'lanadigan amaliyot, korxona va oliygoh hamkorligi, bitiruvchiga “ish joyi pasporti”ni hali o'qish jarayonidayoq berish — ana shular orqali biz ham sarflangan mablag'ni oqlaymiz, ham yoshlarni o'z kasbida yetakchi mutaxassis sifatida voyaga yetkazamiz.

Kelgusi yillarda yurtimizda amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan 83 milliard dollarlik yirik loyihalar nafaqat iqtisodiy rivojlanishga, balki kadrlar siyosatiga ham yangi talablar qo'yimoqda. Zero, bu loyihalarning o'zida 500 mingga yaqin malakali mutaxassisga ehtiyoj bor.

Mavjud muammolarni hal etish uchun, ta'lim jarayonini ish beruvchilar bilan yaqin hamkorlikda tashkil etish, oliygohlarda amaliyotga yo'naltirilgan o'quv dasturlarini joriy etish, korxonalar huzurida kafedra

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ
TILIDA HAM O'QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER QILING!

Shuningdek, atrof-muhitni asrash, “yashil” texnologiyalar va inklyuzivlik tamoyillariga asoslangan o'ndan ortiq yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Universitetda kimyo muhandisligi va neft-gaz sohasi kafedralari yuqori ilmiy salohiyatga ega bo'lib, bu yo'nalishlarda tahsil olayotgan talabalarining ko'pchiligi bitiruv yilidayoq o'z mutaxassisligi bo'yicha ish o'rinlariga ega bo'lmoqda. Bu esa hududda ushbu sohalarga bo'lgan ehtiyojning naqadar yuqori ekanini yaqqol isbotlaydi.

Bitiruvchi trayektoriyasi:
diplom bilan birga ish kafolati

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, har bir qiymati 1 million dollardan ortiq, 50 tadan ziyod ishchi jalb etilgan loyiha o'zining texnik-iqtisodiy asosida mutaxassislar ehtiyojini aniq ko'rsatishi shart. Bu orqali vazirliklar va tarmoq rahbarlari oliygohlarga maqsadli buyurtma taqdim etadi, rektorlar esa o'quv dasturlariga qo'shimcha modullar kiritib, talabalarining bilim va ko'nikmalarini ana shu ehtiyojga moslab rivojlantiradi.

Bugungi mehnat bozorida kommunikativlik, liderlik, jamoada ishlash va tanqidiy fikrlash kabi soft skillar katta ahamiyatga ega. Shu bois, gumanitar fanlar,

so'ng 20 ta mutaxassislik kafedrasiga tegishli 58 ta filial to'g'ridan to'g'ri ishlab chiqarish korxonalarida faoliyat yuritmoqda. Bu orqali talabalarning nazariy bilim hayotiy amaliyot bilan uyg'unlashib, 500 dan ziyod yosh haq to'lanadigan amaliyot va dual ta'lim dasturlarida ishtirok etmoqda. Minglab talabalar ishlab chiqarish jarayonlariga bevosita qo'shilib, malakaviy amaliyot o'tamoqda, ularning bir qismi esa haq to'lanadigan shartlarda mehnat qilmoqda. Shu bilan birga, professor-o'qituvchilar ham ishlab chiqarishda stajirovka o'tash imkoniyatiga ega bo'lib, o'z bilim va tajribalarini zamon talablariga mos ravishda boyitmoqda.

Bundan tashqari, universitet huzurida ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyati yo'lga qo'yilib, magistrlar va tayanch doktorantlar sanoat korxonalaridagi texnik-texnologik muammolarga amaliy yechim topish bilan shug'ullanmoqda. Hozir sanoat hamkorlari ehtiyojlaridan kelib chiqib, zamonaviy ishlab chiqarish jarayoniga sun'iy intellekt, qayta muhandislik, qiyoslash muhandisligi, modeldashirish va avtomatlashirish kabi ilg'or texnologiyalar keng joriy etilmoqda.

Kelgusi yillarda yurtimizda amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan 83 milliard dollarlik yirik loyihalar nafaqat iqtisodiy rivojlanishga, balki kadrlar siyosatiga ham yangi talablar qo'ymoqda. Zero, bu loyihalarning o'zida 500 mingga yaqin malakali mutaxassisga ehtiyoj bor.

biznes, tibbiyot va texnika yo'nalishlarida mikro'rganish modullari, amaliy simulyatsiyalar va loyiha asosida o'qitish orqali talabalarda mazkur ko'nikmalar rivojlantiriladi.

Yangi tizimning eng muhim jihati — talabalar ikkinchi kursdan so'ng ishga olish niyatidagi investor ishtirokida har yili baholanadi. Diplom ishlari esa qo'ldagi loyiha muammosini hal qilishga qaratilgan holda tayyorlanadi va himoya qilinadi. Bu bitiruvchi diplom olgan kuniyoq ish joyiga ega bo'ladigan, amalda “kadr — loyiha — ish” zanjiri shakllanadigan tizimdir.

Shu bilan birga, xususiy sektor uchun rag'batlantiruvchi choralar ko'zda tutilgan. Bitiruvchilarni ishga olgan tadbirkorlar tadbirkorlik reytingida qo'shimcha ballga ega bo'ladi, banklar esa bunday korxonalarga imtiyozli kreditlar taqdim etadi. Bu yoshlarimiz ilm olish jarayonidayoq ishlab chiqarish bilan chambarchas bog'lanishi, ularning har bir sa'y-harakatlari kelajakdagi ish joyiga qadam sifatida qadrlanishi demakdir. Agar bu tizim izchil amalga oshirilsa, davlat sarflagan har bir so'm yosh mutaxassisning qo'lidan mahsulot, innovatsiya va yangilik sifatida qaytib keladi. Shu tariqa yoshlar salohiyati sanoat taraqqiyotining, yurtimiz kelajagining mustahkam poydevoriga aylanadi.

Shundan kelib chiqib, mas'ul vazirlar va tarmoq rahbarlari oliygohlarga aniq buyurtma beradi. Rektorlar esa ushbu buyurtmalar asosida ta'lim dasturlarini qayta ko'rib chiqib, asosiy fanlar qatorida qo'shimcha modullarni joriy etadi. Ushbu modullar talabalarning zamonaviy ishlab chiqarish talablariga mos bilim va ko'nikmalarini shakllantirib, ularga qo'shimcha kredit ballar taqdim etadi.

Diplom ishlari aniq loyihalaridagi dolzarb masalalar yechimida kelib chiqib himoya qilinadi. Bunday yondashuv orqali bitiruvchi o'z yo'nalishi bo'yicha tayyor kadr sifatida, ish beruvchi esa o'z ehtiyojiga mos mutaxassis sifatida maqsadga erishadi. Ya'ni talabalarimiz diplom bilan birga kafolati ish joyiga ham ega bo'ladi. Bu tizim, avvalo, yoshlarimiz kelajagiga, mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojiga xizmat qiladi.

Oliyog'lar endi bitiruvchilarning 5-10 yillik kasbiy rivojlanishini kuzatib boradigan maxsus platformaga ega bo'ladi. Unda bitiruvchi o'z ta'limi haqida fikr bildirishi, ish beruvchi esa tayyorlangan kadr sifatiga bahosini berish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu — oliygoh uchun qimmatli manba. Chunki shu orqali bitiruvchi va ish beruvchi qarashlari tahlil qilinib, ta'lim jarayoni mehnat bozori talabiga mos ravishda doimiy takomillashtiriladi. Shu bilan birga, mehnat bozorining o'zi ham chuqur o'rganiladi.

Yevropaning Chexiya, Germaniya, Avstriya va Shveysariya kabi davlatlarining nufuzli oliygohlari keng qo'llanilayotgan bu amaliyot “bitiruvchi trayektoriyasi” yoki “bitiruvchilar monitoringi” nomi bilan tanilgan. Asosiy maqsad — ta'lim dasturlari samaradorligini baholash, bitiruvchilarning mehnat bozoriga integratsiyalashuvini aniqlash va oliy ta'limni hayot talablariga yanada yaqinlashtirish.

So'nggi yetti yilda oliy ta'lim sohasi jadal rivojlandi — qabul ko'rsatkichlari 4,5 barobar oshdi, yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrovi esa 42 foizga yetdi. Bu bilimli, salohiyatli avlodni shakllantirishda ulkan qadam bo'ldi. Endilikda eng dolzarb vazifa bitiruvchilarning mehnat bozorida munosib o'rin topishi, ya'ni ularni ish bilan ta'minlashdir.

Rektorlar uchun yangi davr:
vakolatlar, adolatli baholash
tizimi va moliyaviy raqobat

Davlatimiz rahbari rektorlar vakolatini kengaytirish va mas'uliyatini oshirish bo'yicha yangi tizim joriy etish zarurligini ta'kidladi. Endi oliy ta'lim muassasalarida “Yangi O'zbekiston” universiteti tajribasiga asoslangan baholash tizimi yo'lga qo'yiladi. Eng asosiy yangilik — moliyalashtirish oliygoh to'plagan ballarga qarab amalga oshiriladi. Bu esa sohaga haqiqiy raqobat va samaradorlik ruhini olib kiradi.

Yangi tizimda bitiruvchilarning bandligiga qarab 40 ball, tarmoq buyurtmasi asosida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va mahsulot sotilishi uchun 30 ball, ilmiy salohiyat va xalqaro jurnallardagi maqolalar uchun 20 ball, mahalliy va xorijiy grantlar jalb etganlik uchun 10 ballgacha beriladi. Yangi tartibga ko'ra, jami ballarning 85 foizini yoki undan ko'prog'ini to'plagan oliygohlar o'z budjetiga qo'shimcha 20 foiz bonus oladi. Ammo natijasi 56 foizdan past bo'lsa, keyingi o'quv yilida moliyalashtirish miqdori qisqartiriladi. Bu tizim adolati raqobat, samaradorlik va natijadorlikka yo'l ochadi. Endi har bir oliygoh moliyalashtirish uchun emas, avvalo, sifat uchun kurashadi.

Endi oliy ta'limda rektorlar uchun haqiqiy keng imkoniyatlar eshigi ochilmoqda. Avvalo, barcha oliygohlar tashkiliy va akademik

mustaqillikka ega bo'ladi, demak, rektor o'z jamoasini o'zi shakllantiradi, o'rinbosarlarini vazirlik bilan kelishmasdan tayinlaydi va har bir nomzod o'z dasturini kengash oldida himoya qiladi.

Moliyalashtirish va shtat doirasida professor-o'qituvchilar hamda boshqaruv xodimlarini erkin taqsimlash, superkontrakt summasini tabaqalashgan holda belgilash huquqi ham rektor qo'lida bo'ladi. Bundan tashqari, “Yangi O'zbekiston” universitetida rektorlar maktabi orqali kelajak rektor va prorektorlari maqsadli tayyorlanadi. Eng yaxshi natija ko'rsatgan nomzodlar malaka oshirish uchun to'g'ridan to'g'ri Garvard universitetiga yo'l oladi.

Tanlov imkoniyati

Bugungi kunda yoshlarimiz uchun oliy ta'lim olish yo'li har qachongidan keng, har qachongidan yorug'. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan har bir tashabbus, ayniqsa, qabul jarayonidagi islohotlar bilim istagan, oliy maqsad sari intilgan har bir yoshning orzu qanotini keng yozishi uchun yaratilayotgan zamindir.

Ta'lim tizimidagi islohotlar natijasida abituriyentlarga 5 ta oliygohni tanlash huquqi berilgani o'z-o'zidan ulkan imkoniyat bo'lgan edi. Kuni kecha davlatimiz rahbari yana bir quvonchli yangilikni e'lon qildi: endi agar yoshlarimiz tanlagan beshta oliygohning birtortasiga o'qishga kira olmasa-da, to'plagan bali boshqa oliygohdagi to'lmagan yo'nalish talabiga mos kelsa, shu oliygoh rektori uni kontrakt asosida qabul qila oladi. Bu intilishdan to'xtamagan yoshlarimiz uchun yangi eshiklarni ochadi.

Ushbu islohotning yana bir muhim jihati — davlat va xususiy oliygohlar o'rtasida sog'lom raqobat muhiti kuchayadi. Chunki endilikda har bir oliygoh abituriyent uchun nafaqat qabul jarayonida, balki o'quv jarayoni, professor-o'qituvchi salohiyati, zamonaviy infratuzilmasi, talabalar hayoti uchun yaratayotgan sharoitlari bilan ham raqobatga kirishadi. Bu — har bir yoshning hayotidagi burilish nuqtasi, uning kelajak yo'lini belgilab beruvchi imkoniyat. Biz uchun esa mas'uliyat. Chunki har bir talaba ertangi mutaxassis, kelajakda mamlakat taraqqiyotini ilgari siljitadigan harakat kuchidir.

Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini band qilish va kasbiy rivojlanishini ta'minlash faqat iqtisodiy barqarorlikka erishish yo'li emas, balki mamlakatning intellektual salohiyatini mustahkamlashning ham eng muhim garovidir. Yosh mutaxassisning o'z yo'lini topishi, bilim va ko'nikmalarini ish jarayonida namoyon qila olishi jamiyatning umumiy rivoji uchun beqiyos qo'shilgan hissadir. Shu bois, Prezidentimiz tomonidan berilgan topshiriqlar doirasida oliygohlar, davlat organlari va xususiy sektorning uzviy hamkorligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Bunday hamkorlik bitiruvchining ishga joylashishi bilan cheklanmaydi — u doimiy ravishda kasbiy o'sish, yangi texnologiyalar va bozor talablariga moslashish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Chunki har bir yigit-qizning mehnat bozorida munosib o'rinni topishi mamlakatning iqtisodiy quvvati va ma'naviy yuksalishi uchun qo'yilgan eng mustahkam poydevordir.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

ISLOHOTLAR DAVRIDA MAS’ULIYAT VA INTIZOM — RIVOJLANISHNING ASOSIY KALITI

Botir QUDRATXO‘JAYEV,
favqulodda vaziyatlar vaziri,
general-mayor

➤ Boshlanishi 1-betda

Farmonning yana bir ahamiyatli jihatı shundaki, davlat organlari va tashkilotlarning rahbarlari qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini ta’minlashda jamoatchilik nazoratini o’rnatish maqsadida ijro intizomi to’g’risidagi tegishli ma’lumotlarni o’z tashkilotlari, shuningdek, Adliya vazirligining veb-sahifalariga joylashtirib, har oyda ma’lumotlarni yangilab borishga, har chorakda qonunlar, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumat hujjatlari ijrosi holati bo’yicha keng jamoatchilikka hisobot berishga majburdir.

Bu, o’z navbatida, qonunlar, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumat hujjatlarining ijrosi ustidan keng qamrovli nazorat o’rnatish, har bir rahbar va xodimning ijro intizomi bo’yicha hisobdorligini ta’minlash, **shaxsiy mas’uliyati hamda javobgarligini yanada oshirish**, pirovard natijada esa ko’zlangan islohotlarning amalga oshishi, xalqimizning davlat idoralaridan rozi bo’lishiga zamin hozirladi.

Ijro intizomini ta’minlashga qo’yilgan qat’iy talablar asosida Favqulodda vaziyatlar vazirligi shaxsiy tarkibi ham qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini barvaqt va sifatli bajarishga jiddiy e’tibor qaratmoqda. 2024-yil va 2025-yilning o’tgan davrida O’zbekiston Respublikasining 72 ta qonuni, Prezidentimizning 69 ta farmoni, 103 ta qarori va 13 ta farmoyishi, 53 ta bayoni, Prezident Administratsiyasining 627 ta, Oliy Majlis palatalarining 142 ta topshirig’i, Vazirlar Mahkamasining 307 ta qarori va farmoyishi, 362 ta bayoni hamda 884 ta topshirig’ining ijrosi ta’minlandi.

Raqamlashtirish — jadallashtirish omili

Soha rivojiga qaratilayotgan e’tibor Favqulodda vaziyatlar vazirligi hamda tizimning barcha yo’nalishi, xususan, raqamlashtirish jarayonida ham yorqin isbotini topmoqda. Jumladan, sohaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng tatbiq etilib, faoliyat raqamlashtirilmoqda.

Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan hamkorlikda “112” yagona markazlashgan dispatcherlik xizmatining tarkibiy qismi sifatida “101 — yagona navbatchi-dispatcherlik xizmati” tizimi ishlab chiqilib, foydalanishga topshirildi.

Mazkur axborot tizimiga mamlakatdagi yong’in sodir bo’lishi mumkin bo’lgan 25 mingga yaqin turli darajadagi obyekt hamda ularning tezkor rejasi va 41 mingdan ortiq yer osti suv olgich ma’lumotlari kiritildi.

Shu bilan birga, “Yong’in xavfsizligi a’lochisi” yillik tanlovini o’tkazish jarayonini raqamlashtirish imkoniyatiga ega axborot tizimi hayotga tatbiq etildi.

“Prognoz ma’lumotlarini tahlil qilishni avtomatlashtirish va dasturiy ta’minot yordamida zilzila darakchilarini aniqlash” hamda “Yonish va portlash xavfi yuqori kimyoviy moddalarni saqlash joylari, bunday moddalardan foydalanish va yo’q qilish nazorati” axborot tizimlari ishlab chiqildi.

“Kuchli zilziladan ogohlantirish” mobil ilovasini yaratish bilan va aholining elektron ilovalar do’konidan havoalasini yuklab olish imkoniyati paydo bo’ldi.



Geoaxborot tizimlari texnologiyalari va uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalangan holda yetib borish imkoniyati cheklangan hududlarda ogohlantirish hamda vaziyatlarni tahlil qilish imkoniyatini beruvchi ko’p funksiyali monitoring mobil kompleksi joriy etilib, hozir Farg’ona viloyati favqulodda vaziyatlar boshqarmasida sinov tariqasida foydalanilmoqda.

Erta ogohlantirish — hayot-mamot masalasi

Aholini yuzaga kelishi mumkin bo’lgan favqulodda vaziyatlardan ogohlantirish va bu haqda tezkor xabar berish, ta’bir joiz bo’lsa, hayot-mamot masalasi, desak, xato qilmagan bo’lamiz. Chunki ofatlar bir lahzadayoq inson hayotini u yoki bu tarafga burib yuborishini tarix sinovlari bir necha marta isbotlagan. Shu sababli bugun aholiga favqulodda vaziyatlar xavfi yoki ro’y bergani to’g’risida tezkor xabar berishning respublika va mahalliy darajadagi avtomatlashtirilgan tizimi yaratilmoqda. Favqulodda vaziyatlar haqida aholiga ma’lumotlarni efir orqali yetkazish va translyatsiya qilish uchun Namangan, Farg’ona, Toshkent, Samarqand, Sirdaryo, Jizzax, Qashqadaryo viloyatlarida hamda Qamchiq dovonida 13 ta keng formatli axborot ekranı o’rnatildi.

Dunyoda sodir bo’layotgan zilzilalar hech kimni befarq qoldirmaydi. Mamlakatimizda seysmik xavfsizlikni ta’minlash maqsadida Xalqaro seysmik kuzatuvlar global tizimiga ulangan qo’shni respublikalarning 57 ta, jumladan, Qirg’iz Respublikasining 26 ta, Tojikistonning 15 ta va Qozog’istonning 16 ta seysmik stansiyasi Milliy seysmik kuzatuvlar tarmog’iga real vaqt rejimida “SeisSomp3” dasturi orqali integratsiya qilindi.

Seysmologiya, inshootlarning seysmik mustahkamligi va seysmik xavfsizlikni ta’minlash sohasini qo’llab-quvvatlash jamg’armasi mablag’lari hisobidan AQSHning “Kinometrics” kompaniyasiga tegishli 140 ta “Etna-2” akselerometri xarid qilindi.

Respublikaning g’arbiy hududlarida optimal seysmik kuzatuvlar tarmog’ini yaratish maqsadida mamlakatimizning g’arbiy hududlarida qo’shimcha 3 ta yangi seysmik stansiya ochildi va Milliy seysmik kuzatuvlar tarmog’iga ulandi.

Shuningdek, respublikaning seysmik faol hududlariga jami 70 ta, suv omborlarida seysmologik kuzatuvlarni amalga oshirishning yaxlit tizimini shakllantirish doirasida esa “Karkidon”, “Qo’rg’ontepa”, “Rezaksy”, “Chortog”, “Yertikan” va “Jiydalisoy” suv omborlari to’g’oniga 28 ta seysmik stansiya o’rnatildi. Shunday qilib, mamlakatda kuchli zilziladan erta ogohlantirish milliy tizimi kuzatuvlar tarmog’idagi stansiyalar soni 130 taga yetkazildi.

O’z vaqtida ko’rilgan chora — favqulodda vaziyatning oldini olish garovi

Favqulodda vaziyatlar, ayniqsa, sel, suv toshqini va ko’chki hodisalari bilan bog’liq tabiiy ofatlar nafaqat insonlar, balki katta hududlarni ham xavf ostida qoldirib, jamiyat hayoti, davlat iqtisodiyotiga ulkan talafot yetkazadi.

Shu bois, retrospektiv tahlillar asosida o’tgan yillarda sodir bo’lgan sel, toshqin va ko’chkilarni chuqur o’rganib, aholi va hududlarni bunday tabiiy ofatlardan muhofaza qilish chora-tadbirlari o’z vaqtida ko’rib kelinmoqda. Jumladan, hududiy favqulodda vaziyatlar boshqarmalari va aloqador tashkilotlar hamda mahalliy hokimliklar



Bugunning havaskori — ertaning xaloskori

vakillaridan iborat ishchi guruhlar sel va ko’chki xavfi mavjud hududlarni o’rganib, zarur muhandislik-muhofaza ishlari bajaradi.

Toshqinga qarshi hukumat komissiyasi va hududiy komissiyalarning yig’ma manzilli dasturlariga muvofiq, 147 ta suv obyektining xavfsizligi ta’minlandi. 74 ta suv va sel-suv ombori, 47 ta gidroelektr stansiyasi, 328 ta suv havzasi o’rganilib, aniqlangan kamchiliklar bartaraf etildi.

Yuzaga kelishi mumkin bo’lgan texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish choralari doirasida yonish va portlash xavfi yuqori kimyoviy moddalarning saqlanishi, tashilishi, foydalanilishi va yo’q qilinishi ustidan nazorat tadbirlari o’tkazildi.

Yonish va portlash xavfi yuqori bo’lgan kimyoviy moddalar saqlanadigan 428 ta ombor xatlovdan o’tkazilib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko’rildi.

Manfaatdor vazirlik va idoralar hamda mahalliy hokimliklar bilan birga 170 ta madaniyat va istirohat bog’i, 14 ta ochiq maydon hamda ularda faoliyat yuritayotgan 3684 ta attraksion holati o’rganib chiqilib, xavfsizligi ta’minlandi.

Cho’kish bilan bog’liq baxtsiz hodisalarning oldini olish yuzasidan daryolar, soylar, kanallar va boshqa suv obyektlarida 52 ming 114 marotaba profilaktika tadbiri o’tkazildi.

Hududlarda kimyoviy, biologik va bakteriologik favqulodda vaziyatlarning oldini olish yuzasidan amaliy ishlar bajarilib, 304 ta maxsus-taktik o’quv mashg’uloti o’tkazildi.

“Favqulodda vaziyatlar va yong’inlar profilaktikasi kuni” doirasida o’tkazilgan 583 mingdan ortiq profilaktik tadbirda 15 million 806 ming 757 fuqaro qamrab olindi.

Shuningdek, aholini zilziladan oldin, zilzila paytida va zilziladan so’ng harakatlanishga tayyorlash bo’yicha ishlar davom ettirilmoqda. Xususan, respublika darajasidagi tashkilotlar hamda mahalliy hokimliklarning 3000 ga yaqin, muhim ahamiyatga ega iqtisodiyot obyektlarining 802 rahbar va mutaxassislari Fuqaro muhofazasi institutida, viloyat, tuman (shahar) darajasidagi korxona, tashkilotlarning 40 mingdan ziyod rahbar xodimi hududiy “Hayot faoliyati xavfsizligi” o’quv markazlarida tayyorgarlikdan o’tkazildi.

Yong’inlar favqulodda vaziyatlar orasida xavfiligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ayni jihatni hozir anglagan vazirlik shaxsiy tarkibi teran mamlakatimizda yong’in nazorati bilan bog’liq muhim va kechiktirib bo’lmaydigan vazifalarni ado etib kelmog’da.

Bu borada raqamlarga murojaat qilsak. Vazirlik xodimlari 168 ming 135 marta tekshirish, 37 ming 154 ta tadbirkorlik subyekti obyektida profilaktik ko’rik o’tkazdi. 5 million 166 ming 743 ta yakka tartibdagi va ko’p qavatli uyda 2 million 675 ming 445 ta xonadonni o’rgandi.

Tadbirlar davomida 16 million 379 ming 846 fuqaro bilan targ’ibot va tushuntirish ishlari o’tkazilib, qoidabuzarlikka yo’l qo’ygan 98 ming 987 javobgar shaxsga nisbatan 46 milliard 802 million 312 ming so’mlik jarima qo’llandi.

“YERELEKTRON” elektron tizimi orqali 83 ming 194 ta yer uchastkasi o’rganilib, 80 ming 496 ta murojaat bo’yicha ijobiy; kamchiliklar aniqlangan 2698 ta yer ajratilishi holati bo’yicha salbiy xulosalar berildi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligining profilaktik, tashkiliy-amaliy tadbirlari natijasida favqulodda holatlarning 2024-yilga nisbatan 2025-yilning o’tgan davrida 21 foiz kamayishiga erishildi.

“Yoshlikda olingan bilim toshga o’yilgan naqsh kabitir”, deya bejiz aytilmagan. Favqulodda vaziyatlardan omon chiqishning yagona yo’li — unga oldindan tayyor turish.

Shundan kelib chiqqan holda bugun mamlakatimizdagi umumta’lim va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida “Yosh qutqaruvchi” ko’ngillilar klubi faoliyat yuritib kelmog’da. Ushbu klublar o’rtasida o’tkaziladigan “Yosh qutqaruvchilar” musobaqalari esa hozir tobora an’anaviy tus olib, o’quvchilar orasidan qutqaruvchilik kasbiga mos, ishtiyoqi baland, chinigqan yoshlarni tanlab olishda asosiy omil bo’lmoqda.

Xususan, yoshlar o’rtasida qutqaruvchi kasbini ommalashtirish maqsadida umumta’lim maktablarida 16 ming 464 ta jamoa (139 ming 367 o’quvchi), professional ta’lim muassasalarida 683 ta jamoa (6993 o’quvchi) “Yosh qutqaruvchi” guruhlarini shakllantirgan holda tuman (shahar), viloyat va respublika miqyosida “Yosh qutqaruvchi” ko’p bosqichli musobaqalari o’tkazildi.

Raqamli texnologiyalar rivojlangan hozirgi davrda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularga munosib sharoit yaratish, muammolarini hal etish, ayniqsa, yosh avlodning yurt koriga yaraydigan, fidoyi insonlar bo’lib voyaga yetishiga hissa qo’shish — barchamizning vazifamiz.

Bu borada vazirlik tizimida 554 marta “Uch avlod uchrashuvi”, hududiy boshqarmalar va tarkibiy tuzilmalar rahbarlari ishtirokida 298 marta “Rahbar va yoshlar”, 15 marta “General va yoshlar”, 50 marta “Prokuror va yoshlar”, 1486 marta “Qutqaruvchi va yoshlar” uchrashuvi o’tkazildi. Ushbu tadbirlarda mahalla va ta’lim muassasalaridagi 44 ming 491 nafar hamda tizimdagi 75 foiz yosh bevosita ishtirok etdi.

Qoraqalpog’istonning Nukus shahrida “Yoshlar oyligi” doirasida “**Yangi O’zbekiston yoshlari, birlashaylik!**” shiori ostida “**Qutqaruvchi yoshlar forumi**” tashkil etildi.

Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularda ona Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg’ularini shakllantirish maqsadida 810 ming 306 yigit-qiz ishtirokida 21 ming 326 marotaba harbiy-vatanparvarlik tadbiri o’tkazildi.

Fuqarobay ishlash asosida 354 ming 688 yosh bilan yakkama-yakka uchrashuvda 24 ming 377 nafarining muammosi, taklif va tashabbuslari o’rganilib, tegishli “yo’l xaritalarga” kiritildi. Natijada o’taliqqa olingan 18 ming 899 yigit-qizning ijtimoiy muammolari hal etildi. Bu borada 435 marotaba mehnat yarmakasi tashkil etilib, 7999 yosh ish bilan ta’minlandi, 2305 nafari kasbga o’qitildi, 2711 nafariga imtiyozli kredit va subsidiya olishga ko’maklashildi, 1248 nafariga moddiy yordam berilib, 4738 nafariga boshqa turdagi yordam ko’rsatildi.

Giyohvandlik va psixotrop moddalar iste’mol qiluvchi 21 yigit-qiz tibbiyot muassasalarida davolatiladi, yana 52 nafariga boshqa ko’rinishdagi ijtimoiy-iqtisodiy yordam paketi ajratildi.

Shuningdek, otaliqqa olingan yoshlardan 109 nafari vazirlik tizimiga ishga qabul qilindi, 9 nafari Shahrisabzdagi “Temurbeklar maktabi” harbiy akademik litseyiga va 5 nafari FVV akademiyasiga o’qishga qabul qilindi.

Obod manzillardan obod ko’ngillar sari

Yurtimizdagi kengko’lamli bunyodkorlik va obodonlashtirish tadbirlarida vazirlik xodimlari ham siddiqildan ishtirok etmoqda.



tayyorgarlik va malaka oshirish markazida 1477 qutqaruvchi bilan boshlang’ich tayyorgarlik, 1340 qutqaruvchi bilan malaka oshirish o’quv yig’ini tashkil etildi.

Bundan tashqari, tuman (shahar)lardagi boshqaruv organlari, kuch va vositalari hamda aholini jalb etgan holda 53 ta qo’mondonlik-shtab o’quv mashqi, korxona va tashkilotda 4893 ta maxsus-taktik o’quv mashqi o’tkazilib, aholining favqulodda vaziyatlar sharoitida to’g’ri harakatlanish bo’yicha amaliy ko’nikmasi oshirildi.

Qulay sharoit — samarali xizmat

Qutqaruvchi qachon samarali va sifatli faoliyat yuritadi? Qachonki zarur xizmat sharoitiga ega bo’lsa, zamonaviy asbob-anjom va texnikalar bilan ta’minlansa, favqulodda vaziyatlarni o’z vaqtida, yuqori talab darajasida bartaraf etla oladi.

Qoraqalpog’istonning Amudaryo tumani, Xorazm viloyati Shovot tumani, Qashqadaryo viloyati Koson tumani, Farg’ona viloyati Furqat tumanida yong’in-qutqaruv qismlarining qurilish ishlari yakunlanib, obyektlar foydalanishga qabul qilindi.

Shular bilan birga, Toshkent shahrining Olmazor tumanida vazirlik shaxsiy tarkibiga xizmat xonadonlari topshirilib, ijtimoiy himoyasi yanada mustahkamlandi.

Xalqaro tajriba soha rivojiga xizmat qiladi

Vazirlik faoliyatida rivojlangan mamlakatlarning sohaga oid ilg’or tajribasini o’rganish va tizim faoliyatiga tatbiq etishga asosiy e’tibor qaratib kelinmoqda. O’tgan davrda 352 ta xalqaro hamkorlik tadbirida vazirlikning 1357 vakili ishtiroki ta’minlandi.

Respublika hududidagi 249 ta xalqaro tadbirda, AQSH, Janubiy Koreya, Turkiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Kanada, Ozarbayjon, Hindiston, Qozog’iston, Belarus, Rossiya, Yaponiya, Germaniya Pokiston, Vengriya, Turkmaniston, Hindiston kabi davlatlar bilan 112 ta hamda BMT, BMTTD, BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi, TDT, MXT, JSST, UNESCO, KOICA, UNICEF, JICA kabi xalqaro tashkilotlar bilan 137 ta tadbirda ishtirok etildi.

O’zbekiston Favqulodda vaziyatlar vazirligi Hindiston, Ozarbayjonning tegishli vazirlik va idoralari hamda Rossiya Fanlar akademiyasining Yer fizikasi instituti o’rtasida favqulodda vaziyatlarning oldini



Orol dengiziga yaqin cho’l hududlarda 289 ming 794 gektar o’rmon barpo qilishda ishtirok etildi. “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida esa 776 ming tup manzarali va mevali daraxt ko’chatı ekildi.

Mahorat mashq paytida oshadi

Favqulodda vaziyatlar chog’ida harakatlanar ekan, qutqaruvchida yuqori jangovar shayligini ta’minlash maqsadida 3811 marotaba yong’in o’chirish taktik mashqi va 11 ming 477 marotaba tungi, 19 ming 990 marotaba kunduzgi yong’in o’chirish amaliy taktik mashg’uloti o’tkazildi.

Gaz va tutundan himoya xizmatlari bilan tutunxonalarda 5782 marotaba, ochiq havoda 28 ming 460 marotaba, ruhiy tayyorgarlik yo’laklarida olov ta’sirida 5181 marotaba, olov ta’siriz 4900 marotaba mashg’ulot o’tkazildi.

Vazirlik akademiyasida 781 ofitser qayta tayyorgarlikdan o’tkazildi va malakasi oshirildi. Akademiya huzuridagi boshlang’ich

Muxtasar so’z o’rnida...

Favqulodda vaziyatlar vazirligi o’tgan davrda mamlakatimiz aholisi va hududlarini yong’in hamda boshqa tushdagi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga qodir bo’lgan mobil va professional xizmatga aylanib bormog’da.

Bugun vazirlik tizimidagi har bir ofitser, serjant va xizmatchi zimmasidagi mas’uliyatli vazifaning nechog’liq zalvorli ekanini yurak-yurakdan anglab, inson qadri ulug’langan, xalqni rozi qilish, qudratli mamlakat barpo etish yo’lidan borayotgan yangi O’zbekiston bunyodkorlari safida dadil odimlab bormog’da.

Darhaqiqat, vazirligimiz zimmasiga yuklatilgan sharaflı vazifalarni ado etar ekanimiz, qat’iy, yuqori talab darajasidagi ijro intizomi — aholi va hududlarning favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, bu borada yuqori samaradorlikka erishishning bosh omili ekanini aslo unutmasligimiz lozim.



Bugunni gapi

Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida sifat va mazmundorlikni oshirish hamda boshqaruv tizimini raqamlashtirish, baholash jarayonining shaffoligi va xolisligini ta'minlash borasida keng ko'lamli ishlar qilinmoqda. Bu sa'y-harakatlar samarasi ilm ahli faoliyatida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Joriy yil 8-avgust kuni Prezidentimiz raisligida oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari bandligini ta'minlash masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda salohiyatli va sadoqatli kadrlar tayyorlash bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi.



RAQOBATLI MEHNAT BOZORI

SALOHİYATLI KADRLAR HISOBIGA
YANADA MUSTAHKAMLANADI

Bahodir MIRZAYEV,
“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalash muxandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti rektori

Bu boradagi ishlar qanday bajariladi? Umuman, mamlakatimiz oliy ta'lim tizimidagi islohotlar qanchalik samara beraypti? Ushbu savollarga “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti misolida javob izlab ko'rsak. Ayni paytda OTMDa 10 ming 882 talaba tahsil olmoqda.

Universitetimiz Markaziy Osiyoda suv, qurilish, atrof-muhit, energetika, qishloq xo'jaligi, yer tuzish va qator muhim yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullanuvchi hamda ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi yetakchi oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasasi sifatida boy tarixga ega. Bitiruvchilarimiz ham turli lavozimlarda faoliyat yuritib, mamlakatimiz va mintaq taraqqa yotiga munosib hissa qo'shib kelmogda.

2024/2025 o'quv yilida universitetimizni 2114 talaba bitirdi. Kunduzgi ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining 40 foizi davlat granti asosida o'qidi. Hozir ularning sohalari bo'yicha viloyatlarda ishga to'liq joylashish jarayoni davom etmoqda.

Raqobatli mehnat bozorida qishloq va suv xo'jaligi uchun yuqori salohiyat va amaliy ko'nikmaga ega hamda o'z kasbiga sadoqatli kadrlar tayyorlash borasida universitetning strategik dasturi ishlab chiqilgan.

Yig'ilishda Prezidentimiz malakali muhandis kadrlar tayyorlashda “tarmoq — korxona — oliygoh” zanjirini yo'lga qo'yishni jadallashtirish zarurligini qayd etdi. Shundan kelib chiqib, bitiruvchilarning ishga joylashuvi bo'yicha ish beruvchi tashkilotlar bilan hamkorlik izchil yo'lga qo'yilmoqda. Jumladan, dual ta'lim tizimi va pulli (maosh to'lanadigan) amaliyotlar yo'lga qo'yilaypti. Dual ta'lim tizimi fakultetlar ixtisoslashuvidan kelib chiqqan holda tashkil etilgan. Gidromeliorsiya fakulteti talabalari vegetatsiya davrida, gidrotexnika qurilish fakulteti talabalari betonlashtirish jarayonida, qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalash fakulteti talabalari qishloq mahsulotlarini ekish, parvarish qilish va yig'ishtirish mavsumida ishtirok etayotgan bo'lsa, boshqa fakultetlar talabalari uchun taqvimiy va davriy grafik asosida o'quv jarayoni tashkil etildi.

2024/2025-o'quv yilida 800 dan ortiq talaba uchun dual ta'lim shakli joriy qilindi va ular haq to'lanadigan amaliyotda qatnashdi. Jumladan, Bo'stonliq tumanidagi Chotqol daryosi bo'yida joylashgan Quyi Chotqol GES, Pskom

GES hamda Norin daryosi bo'yida joylashgan Norin GES kaskadi qurilish maydonlarida, Toshkent viloyatidagi Bo'rjir, Jo'nariq, Qirsadaq kanallari, Sirdaryo viloyatidagi O'ng tarmoq-3-1 va Jizzax viloyatidagi Mulkish kanallarini betonlashtirishda gidrotexnika qurilish fakulteti, vegetatsiya davrida gidromeliorsiya fakulteti talabalari suv tejoychi texnologiyalar yordamida sug'orish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yig'ishtirishda qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalash fakulteti talabalari uchun dual ta'lim tizimi asosida o'quv jarayoni tashkil etildi. Talabalar ish haqi, uch mahal issiq ovqat, maxsus kiyim hamda turar joy bilan to'liq ta'minlandi.

Shuningdek, universitetimizning boshqa ta'lim yo'nalishlarida o'quv jarayoni “3+3” tizimida yo'lga qo'yildi. Ya'ni talabalar haftaning 3 kunda universitetdagi ma'ruza va mashg'ulotlarda qatnashadi, qolgan kunlari “Texnopark” MJCH, “Energo Max Group” MJCH, O'zbekiston milliy metrologiya instituti, Toshkent truba zavodi” qo'shma korxonasi, “UZCASMASH” MJCH, “Texnopark” MJCH, Chirchiq GES kaskadi va boshqa tashkilotlarda amaliyot o'taydi.

Talabalarga qo'shimcha kasb o'rgatish amaliyoti ham yo'lga qo'yilgan. Jumladan, elektr, gaz, va kemping payvandlash bo'yicha qo'shimcha kasb



o'rgatilmoqda. Shu kunga qadar mazkur kurslarga qatnashgan 510 talabaga sertifikat berildi.

Ikkinchidan, universitetimizda ish beruvchi tashkilotlarning maxsus auditoriyalari ochilib, stipendiyalari ta'sis etilyapti.

Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini yo'lga qo'yish maqsadida Suv xo'jaligi vazirligi, “O'zbekgidroenergo”, “O'zagrolizing” aksiyadorlik jamiyatlari, qator tijorat banklari, UNESCO, Germaniya xalqaro hamkorlik tashkiloti (GIZ), AQSHning Case, New Holland, John Deer, Avstriyaning FELDER, Xitoyning XINJIANG TIANYE korporatsiyasi, Rossiyaning “Rostselmash” kabi xorijiy kompaniya va mahalliy ish beruvchi tashkilotlar homiyligida 16 ta maxsus auditoriya hamda qo'shma ilmiy laboratoriyalar ochilib, zarur texnik va laboratoriya vositalari bilan jihozlandi.

Barcha ish beruvchi korxonalarning bitiruvchi kurs talabalari uchun “Ish beruvchi stipendiyasi” ta'sis etildi. Bugun 100 dan ortiq talaba ish beruvchi stipendiyasini olmoqda.

Ushbu korxonalar vakillari yil davomida haftaning muayyan kunida bitiruvchilar bilan o'zi jihozlagan auditoriyalarda muntazam uchrashuv va muloqotlar o'tkazadi hamda o'quv yili yakunida ishga joylashuv bo'yicha vaucherlarni taqdim qiladi.

Bundan tashqari, universitetimizning dunyo OTMlari reytingidagi mavqei yildan yilga mustahkamlanmoqda. Jumladan, bugun jahonning eng nufuzli xalqaro reytinglari bo'lgan “The World University Rankings — 2025” reytingida 601-, “QS World University Rankings — 2025” reytingida esa 469-o'rinni band etgan. Markaziy Osiyo va Kavkazorti mamlakatlari universitetlari orasida 2- va O'zbekistonda 1-o'rinni egallab turibdi.

Universitetimiz 2024-yilda ASIN xalqaro akkreditatsiya agentligining 5 yil muddatga mo'ljallangan xalqaro akkreditatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tdi. Bitiruvchilarimizning diplomlari Yevropa Ittifoqining barcha davlati, Markaziy Amerika, Kanada, Avstraliya, Osiyo va Yevrosiyo mamlakatlari to'g'ridan to'g'ri, nostrifikatsiyasiz tan olindi.

Nobel mukofoti laureati Rik Leyemans (Niderlandiya) bilan mehnat shartnomasi imzolaganmiz va u oktabrdan to'liq shtatda ishga tushadi. Shuningdek, universitetda ta'lim olayotgan 2000 dan ortiq xorijlik fuqaroga AQSH, Kanada, Meksika, Germaniya, Niderlandiya, Vengriya, Italiya, Bangladesh, Misr, Indoneziya, Malayziya, Janubiy Koreya, Xitoy, Rossiyadan malakali mutaxassislar hamda universitetning yetakchi professorlari dars o'tmoqda.

O'quv muassasamizning 2024-yilda ochilgan Olmaota filialida 100 dan ortiq talaba suv xo'jaligi sohasida ta'lim olmoqda.

Prezidentimiz raisligida o'tgan yig'ilishda buyurtma asosida o'qiyotgan talabalar uchun tashkilot va korxonalarining ta'lim bino, asosiy fanlardan tashqari qo'shimcha ta'lim modulldari joriy qilinishi va ushbu modulldari o'qigan talabalarga kredit ballari berilishi belgilandi.

Universitetimizda Vashington universiteti bilan hamkorlikda ta'limning yana bir yangi shakli — “qo'shma auditoriya” mashg'ulotlari o'tilmoqda. Bunda har ikki o'quv muassasasi talabalari real vaqt rejimida masofadan qo'shilib, darsda qatnashadi.

Davlatimiz rahbari muhandislik sohasiga kelayotgan talabalarning bilim saviyasini ko'tarish, texnikumlar faoliyatini modernizatsiya qilish, ta'lim xizmati eksportini oshirish, tijoriylashtirish va investitsiyalarni jalb qilish borasidagi muammolar yechimiga qaratilgan muhim g'oyalarni ilgari surdi.

Darhaqiqat, muhandislik sohasiga fundamental bilimi nisbatan past yoshlar o'qishga kelmogda. Tahlillarga ko'ra, test ishlashga moslashib qolgan abituriyentlar elementar matematik qoidalarini bilmayapti. Oqibatda nazariy mexanika, materiallar qarshiligi, mashina detallari, gidravika kabi fanlarni o'zlashtirishga qiyinalmoqda.

Shuning uchun qabul jarayoniga differensial yondashish, xususan, muhandislik sohasiga kiruvchilar uchun matematika va fizika fanlaridan yozma shakldagi imtihonlarni joriy etish kerak.

Muhandislik ta'limida bosqichma-bosqich 2/4 ta'lim sxemasini tashkil etish, ya'ni texnikumlarni universitet tarkibiga fakultet sifatida kiritib, 2 yillik yakuni bo'yicha kasb diplomini berish amaliyotini qo'llash lozim. Bu amaliyot AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Avstraliya, Yaponiya, Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlarda mavjud. Bunda o'qishni yaxshi va a'lo bahoga bitirganlarni yana 2 yil o'qitib, oliy ma'lumot olishiga imkon beriladi. Shuningdek, ta'lim xizmati eksportini oshirish, xorijiy talabalar va professor-o'qituvchilarni ro'yxatga olish tizimini raqamlashtirish zaruriyati sezilmogda.

Xorijiy talabalarni respublikamizga kirib kelganda ro'yxatga olish vaqti qonunchilikda 3 ish kuni etib belgilangan. Talab qilinadigan ortiqcha qog'ozbozlik va inson omilining doimiy ishtiroki sabab kechikishlar kuzatilmoqda. Shu munosabat bilan xorijiy talabalarni ro'yxatga qo'yish tizimini raqamlashtirish zarur. Misol uchun, E-talaba.uz onlayn platformasini ishga tushirish orqali bunga yechim topsa bo'ladi. Bu universitetlarga xorijiy talabalarni jalb etishda qo'l keladi.



THIRD UNITED NATIONS
CONFERENCE ON LANDLOCKED
DEVELOPING COUNTRIES
AWAZA 2025

Avaza siyosiy deklaratsiyasi:
IQTISODIY INTEGRATSIYA SARI
DADIL QADAM

Sherzod MUSTAFOQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Tenglik, ishonch va taraqqiyot
asosidagi hamkorlik

O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi munosabatlarni mustaqillik yillarida izchillik bilan faol rivojlanib bormogda. Masalan, 2017-yilda ikki tomonlama tovar ayirboshlash hajmi 177 million dollarga yetib, oldingi yillardagidan 3 barobar o'sgan. 2018-yildagi davlat tashrifida imzolangan qo'shma bayonot va 250 million dollardan ziyod qiymatdagi savdo shartnomalari o'zaro munosabatlarga yangi sur'at baxsh etdi. Shu bilan birga, hukumatlararo va idoralararo 17 ta hujjat qabul qilingan.

2022-yilda O'zbekiston — Turkmaniston hamkorligining asosiy ustuvor yo'nalishi sifatida savdo-iqtisodiy aloqalarini yanada kengaytirishga kelishib olindi. Ikki mamlakat chegarasidagi zamonaviy chegaraoldi savdo zonasi tovar ayirboshlash hajmini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va tadbirkorlik aloqalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, sanoat, energetika, qishloq xo'jaligi, transport va logistika sohalarda hamkorlikni chuqurlashtirish, qo'shma loyihalarni amalga oshirish bo'yicha aniq rejalar ishlab chiqilgan.

Ikki davlat suv resurslaridan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy favqulodda holatlarga tayyorgarlik ko'rish sohalarda ham ustuvor hamkorlik yo'nalishlarini belgilab olgan. Markaziy Osiyodagi transchegaraviy daryolar masalasida konstruktiv muloqot izchil davom ettirilmoqda. So'nggi uch yilda shartnomaviy-huquqiy baza yanada mustahkamlandi. Savdo sohasida imtiyozli tartiblar joriy etildi, ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha mexanizmlar ishlab chiqildi. Turkmaniston bugungi kunda O'zbekiston bilan erkin savdo rejimini yo'lga qo'ygan 10 ta davlat qatoriga kiradi.

Shu tariqa O'zbekiston va Turkmaniston munosabatlari nafaqat tarixiy yaqinlik, balki mustahkam iqtisodiy manfaatlar asosida yangi



bosqichga ko'tarilmogda. Davlat rahbarlarining muntazam uchrashuvlari, o'zaro ishonch va yaqin hamkorlikka asoslangan muloqotlar ikki tomonlama strategik sheriklikni yangi bosqichga olib chiqmogda. “Avaza”dagi uchrashuv esa bu jarayonning mantiqiy davomi, hamkorlikning aniq mazmuni va iqtisodiy natijalarga yo'naltirilganini yana bir bor namoyon etdi.

Tarixiy musharaklik

Markaziy Osiyo xalqlari qadimdan o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalari bilan ajralib turgan. Buyuk ipak yo'li bo'ylab qad rostlagan shaharlar — Samarqand, Buxoro, Marv, O'tror, Xiva va Toshkent singari markazlar nafaqat savdo-sotiq, balki ilm-fan va diplomatiya chorrahasiga aylangan. Ushbu hududlarda yashagan xalqlar bir-birining dardiyu quvonchiga sherik bo'lib, murakkab tarixiy jarayonlarda ham mintaqaviy birdamlikni saqlab qolishga intilgan.

So'nggi yillarda, ayniqsa, O'zbekiston yetakchiligidagi mintaqada yangicha siyosiy iqlim shakllanib, o'zaro ishonch, ochiqlik va hamkorlik tamoyillari tobora kuchaymogda. Ayni damda Markaziy Osiyo davlatlari o'zaro

savdo-iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish, mintaqaviy transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish, atrof-muhit muhofazasi va suv resurslaridan oqilona foydalanish masalalarida o'zaro yelkadosh bo'lmoqda.

Bugungi globalashuv davrida xalqaro savdo aloqalari va logistik zanjirlar iqtisodiy taraqqiyotning muhim omiliga aylandi. Ammo bu jarayonda barcha davlatlar teng sharoitda ishtirok etayotgani yo'q. Xususan, to'g'ridan to'g'ri dengizga chiqish imkoniyati bo'lmagan davlatlar uchun transport xarajatlari, bojxona tartib-taomillari va geosiyosiy cheklavlar hali-hanuz jiddiy to'siq bo'lib qolmoqda.

Dengizsiz davlatlar global tengsizlikning yashirin qatlami. Bugungi kunda jahonda bunday mamlakatlar soni 32 tani tashkil etadi. Ularning 16 tasi Afrika, 10 tasi Osiyoda, 4 tasi Yevropada va 2 tasi Lotin Amerikasida joylashgan. Bu davlatlarda dunyo aholisining 7 foizi, ya'ni 500 milliondan ortiq inson yashaydi. Afsuski, ularning aksariyati xalqaro savdoda yetarli raqobatbardoshlikni ta'minlay olmaypti, natijada iqtisodiy rivojlanish sur'atlarida sezilarli farq yuzaga kelmoqda.

Shu nuqtayi nazaridan, O'zbekiston holati alohida e'tiborga loyiq. Respublikamiz geosiyosiy jihatdan Markaziy Osiyoning markazida joylashgan bo'lsa-da, okeanga chiqish uchun kamida ikki davlat hududidan o'tishi talab etiladigan jahondagi atigi ikki mamlakatdan biridir (ikkinchisi — Lixtenshteyn). Bu holat O'zbekistonning global bozorga integratsiyalashuvi, eksport-import logistikasi va tashqi iqtisodiy faoliyatida sezilarli qiynchiliklar tug'diradi.

Aslida, so'nggi yillarda xalqaro bozor tendensiyalari dengiz yo'llarining ustunligini yanada mustahkamlab qo'ymoqda. Chunki dengiz orqali tashladigan yuk tannaxri odatda quuruqlik yo'llariga nisbatan ancha past bo'ladi. Shu sababli port shaharlar va suv havzalari bo'yidagi davlatlar zamonaviy iqtisodiy infratuzilma va transport imkoniyatlari evaziga ilg'orlikka erishmogda.

Aksincha, quuruqlikda joylashgan, ayniqsa, transport infratuzilmasi hali to'liq shakllanmagan mamlakatlar uchun mahsulot yetkazib berish jarayonida ortiqcha xarajalar, vaqt yo'qotishlari va logistika muammolari yuzaga chiqmogda. Bu esa eksport salohiyatini cheklaydi, mahsulotlar raqobatbardoshligini pasaytiradi, natijada investitsiyaviy joziba kamayadi.

BMT tashabbuslari va xalqaro
anjumanlar

Global muammolarni yechish, dengizga chiqish imkoniyati yo'qligi sababli yuzaga keladigan cheklavlarga qarshi yuzaga chiqarilgan strategik choralarini ko'rish maqsadida BMT qator konferensiyalar tashkil etmoqda. Ularning eng muhimlaridan biri LLDCs (Landlocked developing countries — dengiz yo'li bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar) bo'yicha konferensiyalardir.



Uning birinchi global yig'ini 2003-yilda Qozog'istonning Olmaota shahrida o'tkazilgan bo'lib, LLDCs mamlakatlarining transport tizimidagi qiynchiliklari, bojxona jarayonlarining murakkabligi, tranzit davlatlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, mintaqaviy integratsiya va samarova jalb qilish kabi mavzular ilgari surilgan. Natijada Olmaota harakat dasturi (Almaty Programme of Action, APA) qabul qilindi. Bu dastur LLDCs mamlakatlarini rivojiga to'sqinlik qiluvchi transport cheklavlarini kamaytirish, ularni global iqtisodiyotga integratsiyalash, infratuzilmani modernizatsiyalash, samoyalarni rag'batlantirish kabi yo'nalishlarda xalqaro mexanizmlar yaratishni ko'zda tutdi.

Ikkinchi konferensiya esa 2014-yilda Avstriya poytaxti Vena shahrida bo'lib o'tdi. Unda boshqa davlatlarga qaram bo'lgan transport infratuzilmasini diversifikatsiyalash, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, energiya xavfsizligi va atrof-muhitni muhofaza qilish, innovatsiyalar va “yashil iqtisodiyot”ga o'tish kabi mavzular muhokama qilingan. Vena harakat dasturi (Vienna Programme of Action, VPoA 2014-2024) qabul qilinib, bu hujjatda 6 ta ustuvor — transport infratuzilmasini rivojlantirish, bojxona va tranzit tizimlarini

soddalashtirish, raqamli ulanish va axborot texnologiyalari, tashqi savdo, iqtisodiy diversifikatsiya, ijtimoiy rivojlanish va barqarorlik, moliyaviy va texnik yordam yo'nalishlari belgilandi.

Vena konferensiyasi LLDCs uchun moliyaviy institutlar bilan ko'proq hamkorlik qilish zarurligini urg'uladi. Xalqaro moliya tashkilotlari, xususan, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va Islom taraqqiyot banki LLDCs uchun alohida kredit liniyalarini ochishga va'da berdi.

O'zbekiston — muvozanatli
hamkor va ishonchli yetakchi

4-5-avgust kunlari LLDCsning Turkmanistonda bo'lib o'tgan uchinchi konferensiyasi ayni paytda Markaziy Osiyoning mintaqaviy roli oshayotgan davrga to'g'ri keldi. Unda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan takliflar e'tibor markazida bo'ldi.

Prezidentimiz o'z nutqida LLDCsga xos muammolar, ayniqsa, transport xarajalarining yirik iqtisodiy yo'qotishlarga olib kelayotgani, tranzit tizimi beqarorligi mintaqaviy iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini aniq raqamlar orqali tahlil qildi. “Markaziy Osiyo mintaqasi har yili yalpi ichki mahsulotning ikki foizigacha yo'qotmogda, ayrim mahsulotlarda logistika xarajatlari umumiy narxning 60 foizigacha yetmogda”, dedi davlatimiz rahbari.

Shuningdek, O'zbekistonning eng yaqin dengiz portidan qariyb 3 ming kilometr uzoqlikda joylashgan, eksport-import uchun bir necha davlat hududini kesib o'tish zarurligi mintaqaning iqtisodiy barqarorligi uchun jiddiy to'siq bo'lib qolmogda. Shu real vaziyatni inobatga olgan holda Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston” temir yo'li loyihasi mintaqaviy hamkorlikdagi tarixiy qadamlardan biri bo'lgan. 2024-yil dekabr oyida start berilgan ushbu megaloyiha yillik yuk tashish hajmini 15 million tonnagacha yetkazadi. Eng asosiysi, Xitoydan Yevropaga olib boriladigan yuklar uchun masofa bir necha ming kilometrga, vaqt esa bir haftaga qisqaradi.

Barqaror rivojlanish
va iqtisodiy
transformatsiya yo'li

Avaza konferensiyasida davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar xalqaro hamjamiyat tomonidan yuqori baholandi.

Jumladan:

— BMT shafeligida Tranzit kafolatlari to'g'risida global bitim ishlab chiqish;
— Dengizga chiqish imkonini bo'lmagan mamlakatlar uchun logistika jamg'armasini tashkil etish;
— “O'zbekiston — Afg'oniston — Pokiston” temir yo'lini “Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston” yo'li bilan bog'lash;
— Innovatsion agrohoj yaratish;
— “Zaiflik global indeksi”ni ishlab chiqish va ushbu yo'nalishdagi ilmiy markazlar, ekspertlar ishtirokini kengaytirish O'zbekiston tashqi siyosatining puxta va xalqparvarlikka asoslangan amaliy ifodasi bo'ldi.

Davlatimiz rahbarining Turkmanistonga amaliy tashrif davomida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi maslahat uchrashuviga tayyorgarlik ko'rish masalalari ham muhokama qilindi. O'zaro ishonch va do'stona aloqalar asosidagi muzokaralar bugungi beqaror geosiyosiy sharoitda mintaqaviy birdamlikning naqadar muhimligini yana bir bor ko'rsatdi.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari ishtirokidagi tadbirlar nafaqat diplomatik sahnada, balki tarixiy tuyg'ular va samimiy hurmatga asoslangan an'anaviy munosabatlarni segmentida ham tantanalil lahzalarni yaratdi. Xususan, Prezidentimizning Turkmanistonning yuksak mukofoti — “Hamkorlikni rivojlantirishga qo'shgan hisssasi uchun” ordeni topshirildi. Bu yuksak davlat mukofotini O'zbekiston rahbariga topshirish marosimi xalqaro konferensiya dasturida o'tkazilgan muhim voqealardan biri bo'ldi.

Mamlakatimizning xalqaro konferensiyalardagi faol ishtiroki, Prezidentimizning chuqur tahliliy nutqlari va amaliy tashabbuslari O'zbekistonning har tomonlama ochiq, barqaror va farovon taraqqiyot yo'lidani borayotganini yaqqol tasdiqlaydi. Bunday tashabbuslar bilan biz nafaqat o'z oldimizga qo'ygan maqsadlarni ro'yogba chiqaramiz, balki xalqaro hamjamiyatda ham ishonchli va muvozanatli hamkor sifatida tan olinishda davom etamiz.

Bir so'z bilan aytganda, “Avaza”dagi xalqaro konferensiya nafaqat global muammolarni muhokama qilish, balki ikki qarodosh davlat — O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni aniq maqsadlar va manfaatli loyihalar asosida rivojlantirishga yangi sur'at baxsh etdi. Prezidentimizning ushbu amaliy tashrif mintaq taraqqa yotini, barqaror transport yo'laklari va iqtisodiy integratsiyani muhim halqasiga aylantirish uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.



